

**“Korporativ boshqaruvchi malaka attestatini oladigan nomzodlar bilan  
suhbat o'tkazish komissiyasi  
TARKIBI**

- Komissiya raisi:** - **Xolbayev Baxrom Avazbayevich** - Oliy biznes maktabi direktori o'rinbosari, PhD
- Komissiya raisining o'rinbosarlari:**
- **Xusanov Nodirbek Djummayevich** - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining birinchi o'rinbosari
  - **Vasitov Xushnodbek Rapikovich** - Oliy biznes maktabi Malaka oshirish kurslari, korporativ dasturlar va stajirovkalarni tashkil etish bo'limi boshlig'i v.b.
- Komissiya a'zolari:**
- **Miraliev Alisher Erkinovich** - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori o'rinbosari
  - **Adilov Mirkomil Miralimovich** - Oliy biznes maktabi direktori o'rinbosari, PhD (iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori)
  - **Rustamova Shaxnoza Shavkatovna** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Iqtisodiyot, sanoat, moliya-bank, soliq, davlat aktivlari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari kotibiyati bosh mutaxassisi.
  - **Suyunov Dilmurod Xolmurodovich** - Oliy biznes maktabi “Biznesni boshqarish va tadbirkorlik (MBA)” kafedrasini mudiri, i.f.d. prof.
  - **Karakulov Farxod Zaypudinovich** - Oliy biznes maktabi “Biznesni boshqarish va tadbirkorlik (MBA)” kafedrasini i.f.n. professor v.b.
  - **Atajanov Azizbek Abdimalikovich** - Oliy biznes maktabi Bosh yuristkonsulti PhD (yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori)
  - **Qurbonaliyev Sanjar Sabriddinovich** - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish departamenti boshlig'i
  - **Axmedov Sharofiddin Shodimurotovich** - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Davlat ishtirokidagi

korxonalarda tahlil va samaradorlikni baholash boshqarma boshlig'i

**Komissiya kotibi** - **Sharipov Behruz Nayim o'g'li** - Oliy biznes maktabi Malaka oshirish kurslari, korporativ dasturlar va stajirovkalarni tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi (ovoz berish huquqisiz)

Izoh. Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoki tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.

**“Korporativ boshqaruvchi malaka attestati” ni oladigan nomzodlar bilan  
suhbat o‘tkazish komissiyasi  
NIZOMI**

**I-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ( keyingi o‘rinlarda – Oliy biznes maktabi ) tomonidan “ Korporativ boshqaruvchi malaka attestati”ni ( keyingi o‘rinlarda – Attestat) oladigan nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish komissiyasining ( keyingi o‘rinlarda – Komissiya) tashkil etilishi , tarkibi , vakolatlari va ish tartibini belgilaydi.

2. Komissiya Oliy biznes maktabi direktorining buyrug‘i asosida tuziladi va unga hisobdor bo‘ladi.

3. Komissiya o‘z faoliyatida quyidagilarga amal qiladi:

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi;
- Oliy biznes maktabining Ustavi va ichki hujjatlari;
- “Korporativ boshqaruv” sohasidagi ta’lim standartlari va malaka talablari;
- Mazkur Nizom.

4. Komissiya faoliyatining asosiy maqsadi – nomzodlarning korporativ boshqaruv sohasidagi nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va malakasini obyektiv va xolis baholash hamda Attestatni berishga loyiq nomzodlarni aniqlashdir.

**II-bob. Komissiyaning tashkil etilishi va tarkibi**

5. Komissiya tarkibi 11 (o‘n bir) nafar a’zodan iborat bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Komissiya raisi – Oliy biznes maktabi direktori yoki uning o‘rinbosari;
- Komissiya raisining o‘rinbosarlari:

Davlat aktivlarini boshqarish bo‘yicha vakolatli organ rahbari;

Oliy biznes maktabining qisqa muddatli kurslar tashkil etish bo‘yicha tegishli bo‘limi boshlig‘i.

- Kotib – Oliy biznes maktabining qisqa muddatli kurslar tashkil etish bo‘yicha tegishli bo‘limi xodimi;

- A'zolar – tegishli soha mutaxassislari, Davlat aktivlarini boshqarish bo'yicha vakolatli organ vakillari, professor-o'qituvchilar va amaliyotchi korporativ boshqaruv sohasi vakillari.

6. Komissiya a'zolari Oliy biznes maktabi direktorining buyrug'i asosida tayinlanadi va almashtiriladi . Buyruqda a'zolarning ism-sharifi va lavozimi ko'rsatiladi.

7. Komissiya a'zolarining vakolati muddatsiz bo'lib, zarurat yuzasidan a'zolar almashtirilishi mumkin.

8. Komissiyaning to'liq tarkibi va unga kiritilgan o'zgartirishlar Oliy biznes maktabining rasmiy veb- saytida e'lon qilinadi.

### **III-bob. Komissiya raisi va kotibning vazifalari**

9. Komissiya raisi:

- Komissiya majlislarini boshqaradi;
- Suhbat jarayonini nazorat qiladi va tartib-intizomni ta'minlaydi;
- Ovozlar teng bo'lgan taqdirda hal qiluvchi ovoz beradi;
- Yakuniy baho bo'yicha Komissiya xulosasini imzolaydi;
- Nizoli va murakkab holatlarda jiddiy qarorlar qabul qiladi.

10. Komissiya raisining o'rinbosarlari:

- Rais mavjud bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bajaradi;
- Suhbat savollari ro'yxatini tayyorlashga rahbarlik qiladi;
- Nomzodlarni attestatga tayyorlash jarayonini muvofiqlashtiradi.

11. Kotib:

- Majlislarning bayonnomasini yuritadi;
- Nomzodlar hujjatlarini qabul qiladi va saqlaydi;
- Suhbat jadvalini tayyorlaydi va nomzodlarga xabar beradi;
- Komissiya hujjatlari arxivini yuritadi.

### **IV-bob. Komissiyaning vakolatlari**

12. Komissiya quyidagi vakolatlarga ega:

12.1. Nomzodlarning arizalari va taqdim etilgan hujjatlarini ushbu Nizom talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi va baholaydi.

12.2. Suhbat jarayonida nomzodlardan qo'shimcha hujjatlar yoki ma'lumotlar so'rash huquqiga ega.

12.3. Nomzodni suhbatga qo'yish to'g'risida qaror qabul qiladi (taqdim etilgan hujjatlar mos bo'l magan taqdirda).

12.4. Korporativ boshqaruv sohasidagi suhbat savollarini belgilaydi va tasdiqlaydi.

12.5. Baholash mezonlarini belgilaydi va baholash jadvallarini tasdiqlaydi.

12.6. Attestat berish yoki bermaslik to'g'risida yakuniy qaror qabul qiladi.

12.7. Shikoyatlarni ko'rib chiqadi va apellyatsiya jarayonini amalga oshiradi.

13. Komissiya a'zolari suhbat jarayonida xolis va obyektiv baho berishga majbur bo'lib, shaxsiy manfaatdorlik mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu holat to'g'risida raisga xabar berishlari va baholash jarayonidan chetlashishlari shart.

14. Komissiya a'zolari suhbat jarayoni va nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni sir saqlash majburiyatini oladi.

#### **V-bob. Suhbatga kirish shartlari**

15. Suhbatga kirish uchun nomzodlar davlat xizmatlari markazlari va O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda – YAIDXP) orqali murojaat qiladilar.

Murojaatda quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining "Korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti va tamoyillari" bo'yicha o'quv kursini tamomlaganlik to'g'risidagi sertifikati;

- Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining "Biznesni boshqarish", "Kapital bozori va birja ishi" va "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" ("Biznes innovatsiyalar va tadbirkorlik") magistratura mutaxassisliklari bo'yicha korporativ boshqaruv fanini 86 ball va undan yuqori darajalarda o'zlashtirganligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Bunda, murojaatlar ushbu o'quv kurslari va magistratura tinglovchilari tomonidan mazkur fan o'qitilgandan keyin bir yil mobaynida berilishi mumkin.

16. Suhbatga kirish uchun murojaat suhbat sanasidan kamida 10 (o'n) kun oldin taqdim etilishi kerak.

17. Suhbatga kiradigan nomzodlar ro'yxati Oliy biznes maktabining rasmiy veb-saytida suhbat o'tkazish sanasidan 5 kun oldin joylashtiriladi.

18. Suhbat o'tkazish kuni, vaqti va joyi to'g'risida ma'lumot Oliy biznes maktabining rasmiy veb-saytida belgilangan suhbat o'tkazish sanasidan 15 kun oldin joylashtiriladi.

#### **VI-bob. Suhbat tartibi**

19. Suhbat Oliy biznes maktabi binosida yoki Komissiya raisining qaroriga ko'ra masofaviy (onlayn) formatda o'tkaziladi.

20. Suhbat davomiyligi har bir nomzod uchun 20 daqiqacha gacha belgilanadi.

21. Suhbat tili davlat tilida o'tkaziladi.

22. Suhbat quyidagi bosqichlardan iborat:

22.1. Kirish – nomzod o'zini tanishtiradi, kasbiy tajribasini qisqacha bayon etadi.

22.2. Asosiy suhbat – Komissiya a’zolari tomonidan korporativ boshqaruv nazariyasi, amaliyoti va huquqiy asoslari bo‘yicha savollar beriladi.

22.3. Keys-topshiriq – nomzodga amaliy vaziyat (keys) taqdim etiladi va u bo‘yicha tahlil va yechim taklif etish so‘raladi.

22.4. Yakunlash – nomzodning savollari tinglanadi, suhbat yakunlanadi.

23. O‘tkazilayotgan suhbatning shaffofligi va xolisligini ta’minlash maqsadida suhbat o‘tkazish jarayoni uzluksiz ravishda ovozli videotasvirga tushiriladi.

24. Suhbat uchinchi shaxslarning ishtiroki va kuzatuvvisiz, ya’ni yopiq tartibda o‘tkaziladi. Apellyatsiya holatlarida Oliy biznes maktabi rahbariyati vakili kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

### **VII-bob. Baholash mezonlari va tartibi**

25. Nomzodlar quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi:

<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Maksimal ball</b>	<b>Izoh</b>
Korporativ boshqaruv nazariyasi va tamoyillari	30	OECD, Basel II/III, IFRS standartlari bilimlari
Huquqiy-me’yoriy asoslarni bilishi	20	O‘zbekiston qonunchiligi , Aksiyadorlik jamiyati to‘g‘risidagi qonun
Amaliy tajriba va keys- tahlili	25	Real vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish ko‘nikmasi
Kommunikatsiya va taqdimot mahorati	15	Aniq va ishonarli bayon etish qobiliyati
Etika va kasbiy mas’uliyat	10	Korporativ etika tamoyillariga rioya qilish
<b>JAMI</b>	<b>100</b>	

26. Har bir Komissiya a’zosi nomzodni mustaqil ravishda baholaydi. Yakuniy ball a’zolarining ballari o‘rtachasi sifatida hisoblanadi.

27. Attestat berish uchun nomzod kamida 70 (yetmish) ball to‘plashi shart. Natijalar shkalasi:

- 70 va undan yuqori ball – qoniqarli (Attestat beriladi);

- 70 balldan past – qoniqarsiz (Attestat berilmaydi);

28. Baholash natijalari suhbat tugagandan so‘ng 5 (besh) ish kuni ichida Oliy biznes maktabining rasmiy veb- saytida e’lon qilinadi.

### **VIII-bob. Komissiya majlislari tartibi**

29. Komissiya majlisi Komissiya a’zolarining kamida 2/3 qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

30. Komissiya qarorlari ochiq ovoz berish orqali, ishtirok etayotgan a'zolarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

31. Har bir majlis yakunida Kotib bayonnoma tuzadi. Bayonnomada quyidagilar aks etadi:

- Majlis sanasi, vaqti va joyi;
- Ishtirok etgan a'zolar ro'yxati;
- Ko'rilgan masalalar va qabul qilingan qarorlar;
- Har bir nomzod bo'yicha ajratilgan ballar va yakuniy xulosa;
- A'zolarning imzolari.

32. Bayonnoma majlis yakunidan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida barcha a'zolar tomonidan imzolanadi va Maktab arxivida saqlanadi.

33. Komissiya majlisi natijalari Maktab direktoriga rasmiy hisobot tarzida taqdim etiladi.

#### **IX-bob. Apellyatsiya tartibi**

34. Nomzod suhbat natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, natija e'lon qilinganidan so'ng 3 (uch) ish kuni ichida Oliy biznes maktabi direktori nomiga yozma apellyatsiya arizasi bilan murojaat qilish huquqiga ega.

35. Apellyatsiya arizasida norozilikning aniq asoslari va hujjatli dalillar ko'rsatilishi shart.

36. Apellyatsiya bo'yicha qaror 10 (o'n) ish kuni ichida qabul qilinadi. Apellyatsiyani ko'rish jarayonida komissiya bayonnomasi va video yozuv ko'rib chiqiladi.

37. Apellyatsiya natijasiga ko'ra:

- suhbat natijalarini ( yozma ravishda asoslangan xat asosida) o'zgarishsiz qoldirish va apellyatsiyani qanoatlantirishni rad etish to'g'risida;
- apellyatsiyani qanoatlantirish va talabgor malaka imtixonini topshirgan deb hisoblash to'g'risida;
- talabgorni takroran malaka imtixoniga qo'yish to'g'risida.

38. Apellyatsiya natijasi yakuniydir. Takroriy apellyatsiya ko'rilmaydi.

#### **X-bob. Attestat berish tartibi**

39. Komissiyaning ijobiy xulosasi asosida nomzodga "Korporativ boshqaruvchi malaka attestati" beriladi.

40. Attestat amal qilish muddati berilgan sanadan boshlab 5 (besh) yilni tashkil etadi.

41. Berilgan attestatlar reyestri Oliy biznes maktabining elektron ma'lumotlar bazasida yuritiladi va rasmiy veb-saytda joylashtiriladi.

## **XI-bob. Yakuniy qoidalar**

42. Ushbu Nizom Oliy biznes maktabi direktorining buyrug'i bilan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

43. Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar Oliy biznes maktabi direktorining buyrug'i asosida kiritiladi va Nizomning ajralmas qismi hisoblanadi.

44. Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qo'llaniladi.

45. Ushbu Nizom Komissiya a'zolari uchun majburiydir.